"Tasdiqlayman"
Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası
mudiri_____________Sh.Aldasheva
"15" ____09____ 2023-yil

**Ellikqal'a pedagogika fakulteti "O'zbek tili va adabiyot" bakalavr tálim yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan 2023-2024-oquv yili uchun tayyorlangan**
**JN, ON, YN savollari**

**Tuzuvchilar: Aldasheva Sh** _____________

**Hozirgi o’zbek adabiy tili fanidan oraliq nazorat uchun test savollari**

**1-variant**

1. Gapning kuzatilgan maqsadga ko‘ra turlari berilgan qatorni belgilang.
A. Darak, so‘roq va buyruq gaplar.
B. Atributiv, relyativ va obyektli gaplar.
C. Darak, so‘roq, his – hayajon va buyruq gaplar.
D. Bir tarkibli va ikki tarkibli gaplar.
2. Gapning markazini tashkil etuvchi bo‘lak ko‘rsatilgan qatorni toping.
A. Ega va Kesim.
B. Bosh bo‘laklar.
C. kesim.
D. Kesimlik kategoriyasi ko‘rsatkichlari.
3. Aktual vazifa jihatidan gapni tashkil etuvchi unsurlarni aniqlang.
A. Mavzu va reja.
B. Tema va rema.
C. Axborot va tema.
D. Nutq sharoiti, so‘zlovchi va tinglovchi.
4. Gapning temasi izohlangan javobni toping.
A. Remani izohlovchi unsur.
B. Ega to‘g‘ri keladigan qism gap temasidir.
C. Gapdagi so‘zshakllar tema èki remaga muvofiqligiga ko‘ra joylashadi.
D. Gapda ifodalangan axborotning ma’lum qismi.
5. ―Yulduz‖so‘zining shakliy birikuvchanlik imkoniyatlari ifodalangan qatorni belgilang.
A. Yulduz misoli son-sanoqsiz, yulduzlardan yiroq, yulduzdek porlamoq.
B. Oltin yulduz, èrqin yulduz, yo‘lchi yulduz.
C. Yulduzli tun, yulduzlardan baland, yulduzsiz osmon.
D. San’atimiz yulduzi,samoviy yulduzlar, xira yulduz
6. Uyushiq bo‘lak qanday gapni shakllantiradi?
A. Murakkablashgan gapni.
B. Uyushiq bo‘lakli gapni.
C. Uyushgan gapni.
D. Uyushiq qismli gapni.
7. ‖Kim?‖,‖nima?‖,‖qayer?‖ so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar nutqda nimani ifodalaydi?
A. Egani.
B. Otni.
C. Shaxs, narsa va makonni.
D. Predmetni.
8. [WPm U WPm]=QG qolipi qanday sintaktik birlikka xos lisoniy mohiyatni o‘zida mujassamlashtiradi?
A. Murakkab sintaktik butunlikka xos.
B. Uyushgan gapga xos.

C. Sodda gapga xos.
D. Qo‘shma gapga xos.
9. Yig‘iq gap ta’rifi berilgan javobni toping.
A. Faqat ega va kesimdan tashqil topgan gap.
B. Kengaytiruvchi bo‘laklari maksimal darajada qisqargan gap.
C. Kesimlik ko‘rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi.
D. [WPm U WPm]=QG hosilalarining tarkibiy qismi.
10. To‘ldiruvchining turlarini belgilang.
A. Vositali va vositasiz to‘ldiruvchi.
B. Ajratilgan va uyushiq to‘ldiruvchi.
C. Sodda va murakkab.
D. Nutqiy va lisoniy
11. Vositali to‘ldiruvchini shakllantiruvchi vositalarni belgilang.
A. Jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt kelishigi ko‘rsatkichlari va ko‘makchi.
B. Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.
C. Kelishik va ko‘makchi.
D. Yordamchi so‘zlar.
12. ‖Ifoda maqsadi‖ qanday hodisa?
A. Sintaktik hodisa.
B. Nutqiy hodisa.
C. Nosintaktik hodisa.
D. Lisoniy-sintaktik hodisa.
13. Berilgan hosilalar qatoridan shaxsi umumlashgan gapni toping.
A. Odamzot ruhining quvvati ko‘zida bo‘ladi.(P.Koelo)
B. Yaxshilar tanitar yurtning nomini.(A.Oripov)
C. Sen bilan qachonlardir nimadir talashgan, tortishgan kishining do‘stligiga ishonib bo‘lmaydi. (Chesterfild).
D. Sanamay sakkiz dema.(Maqol)
14. Qo‘shma gap qurilishiga ega bo‘lgan maqollarni ajrating.
A. Yetmish go‘zallikning bittasi – mehnat (M.).
B. Bir ko‘ngil imorati — ming Makka zièrati (M.).
C. Fikri ravshanning so‘zi ravshan (M.).
D. To‘ni yomonni it qopar, ko‘ngli yomonni haq topar (M.).
15. SBda hokim a’zoning ma’nosini muayyanlashtiruvchi so‘z nima deb yuritiladi?
A. Izohlovchi.
B. Tobe a’zo.
C. Hokim bo‘lak.
D. Kengaytiruvchi.
16. Morfologik shakllar tarkibidagi «tobega xoslar»ni ajrating.
A. Kelishik, ravishdosh va sifatdosh ko‘rsatkichlari.
B. Kelishik va sifatdosh ko‘rsatkichlari.
C. Kesimlik ko‘rsatkichlari.
D. Ravishdosh, sifatdosh ko‘rsatkichlari.
17. «Hokimga xoslar» berilgan qatorni belgilang.
A. Kesimlik, egalik va nisbat ko‘rsatkichlari.

B. Ravishdosh va sifatdosh shakllar.
C. Kelishik va nisbat ko‘rsatkichlari .
D. Egalik va shaxs – son ko‘rsatkichlari
18. Tushuncha ifodalaydigan til birliklarini aniqlang.
A. Atov birliklari.
B. Leksema, ibora va so‘z qo‘shilmasi.
C. So‘z birikmasi va gap.
D. So‘z birikmasi, leksema va ibora.
19. Ikki yoki undan ortiq predikativ birlikdan iborat nutqiy sintaktik birlikni belgilang.
A. Murakkablashgan gap.
B. So‘z birikmasi
C. Qo‘shma gap
D. Uyushgan gap.
20. [Pm] ramzi nimani ixcham tarzda ifodalaydi?
A. Kesimning grammatik shaklini.
B. Sodda gapni.
C. Morfologik birikuvchanlikni.
D. Gap kengaytiruvchilarini.

**2-variant**

1. Sintaksisning asosiy birliklari berilgan qatorni aniqlang.
A. So‘z birikmasi, sodda gap, qo‘shma gap.
B. Gap, aniqlovchi, so‘z qo‘shilmasi.
C. Sodda gap, qo‘shma gap, o‘zga gap.
D. Aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol.
2. Lisoniy sintaktik birliklar ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.
A. Leksema, qolip, fonema, morfema.
B. Sintaktik qurilma, sintaktik vaziyat.
C. So‘z birikmasi LSQ lari, gap LSQ lari.
D. Qolip, tobe vaziyat.
3. [Rm] ga xos morfologik belgilar ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.
A. Zamon, mayl, shaxs/son, tasdiq/inkor.
B. Modallik, zamon, predikativlik.
C. Predikativlik, zamon, tasdiq/inkor, shaxs/son.
D. Fe’lga xos barcha grammatik xususiyatlar.
4. Sintaktik aloqaning asosiy turlari berilgan qatorni toping.
A. Tobelik va hokimlik.
B. Bog‘lanish va ergashish.
C. Sintagmatik aloqa va semantik aloqa.
D. Tenglanish va tobelanish.

5. Sintaktik aloqani yuzaga chiqaruvchi morfologik vositalar berilgan qatorni aniqlang.
A. Urg‘u, tartib (pozitsiya), so‘zning lug‘aviy ma’nosi.
B. Ko‘makchilar, bog‘lovchilar, kelishiklar, egalik shakllari.
C. Nisbiy so‘zlar, ohang, bog‘lovchilar.
D. Kelishiklar va egalik shakllari, o‘zgalovchi kategoriyasi shakllari.
6. Teng aloqa asosida hosil bo‘ladigan sintaktik hodisalar ko‘rsatilgan qatorni toping.
A. So‘z qo‘shilmasi, uyushiq bo‘laklar, [WPm U WPm]=QG.
B. Sodda gap, qo‘shma gap, uyushgan gap.
C. Ohang vositasida shakllangan qo‘shma gap, uyushgan gap, sodda gap.
D. So‘z birikmasi, bog‘langan qo‘shma gap, o‘zga gap.
7. Gapning tuzilishiga ko‘ra tasnifi berilgan qatorni belgilang.
A. Sodda gap, murakkablashgan sodda gap, qo‘shma gap, murakkab qo‘shma gap.
B. Sodda gap, murakkab gap, o‘zga gap.
C. Qo‘shma gap, o‘zga gap, sodda gap, to‘liqsiz gap.
D. Sodda gap, to‘liqsiz gap , so‘z-gap, qo‘shma gap.
8. [W] ramzi izohlangan qatorni toping.
A. [W] ramzi inglizcha ―so‘z‖ degan ma’noni bildiradi.
B. Bu ramz kesimning lug‘aviy ma’no qismini ixcham tarzda ifodalaydi.
C. Istalgan so‘z kesim vazifasida voqelashadi.
D. Bu ramz kesimda grammatik ma’no ifodalovchi birliklarni umumlashtiradi.
9. Omon bo‘lsang, pisharsan, bu taftingdan tusharsan (F.F). Bu nutqiy hosila qaysi LSQ asosida yuzaga chiqqanligini aniqlang.
A. [WPm→ WPm , WPm]=MQG.
B. WPm U WPm]=QG.
C. [WPm, WPm]=QG.
D. [ WPm↔ WPm]=QG.
10. Ko‘k, qizil, zangori, sariq, oq, pushti, jigar rang, pistoqi – boring-chi, dunèda qancha rang bo‘lsa, shu to‘tining patida bor edi (F.F). Bu gap qanday LSQ hosilasi ekanligini va unda qaysi bo‘lak uyushganligini aniqlang.
A. [ WPm→ WPm]=QG, hol.
B. [WPm]=SG, to’ldiruvchi.
C. [ WPm, WPm→ WPm]=QG, ega.
D. [ WPm→ WPm]=QG, aniqlovchi.
11. So‘zga xos birikuvchanlik (valentlik)ning ko‘rinishlari berilgan qatorni aniqlang.
A. Ma’noviy birikuvchanlik, shakliy birikuvchanlik va joylashuvga xos birikuvchanlik.
B. Semantik valentlik, morfologik valentlik, fonetik valentlik.
C. Semantik valentlik va sintaktik valentlik.
D. Sintagmatika va paradigmatika.
12. Lisoniy bosqichda so‘z kengaytiruvchisi mavqeyida voqelashadigan ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang.
A. Aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol.

B. Sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.
C. Vositali va vositasiz to‘ldiruvchi.
D. Ega, kesim, hol, to‘ldiruvchi,aniqlovchi.

13. Qobil boboning qo‘shnisi – burunsiz ellikboshi kirdi. (A.Qahhor). Berilgan gapda ―qo‘shnisi‖ so‘zi qanday sintagmatik munosabatni hosil qilgan va qanday sintaktik vazifani bajargan?

A. Aniqlovchi – aniqlanmish munosabati, ega.
B. Qaratuvchi – qaralmish munosabati, aniqlovchi.
C. Izohlovchi – izohlanmish munosabati, ega.
D. Atributiv munosabat, ega.

14. Mehmonlar jo‘nab, oradan sal vaqt o‘tmay Asrorqul keldi (A.Qahhor). Mazkur nutqiy hosila qanday gap ekanligini aniqlang.

A. Payt ergash gapli qo‘shma gap.
B. Ikki tarkibli sodda yoyiq gap.
C. Ergashgan qo‘shma gap.
D. Murakkablashgan sodda gap.

15. Hol va uning turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.

A. Maqsad, sabab, miqdor, ravish.
B. Vositali, vositasiz.
C. O‘rin, payt, ravish, son.
D. Miqdor, daraja, vaziyat, harakat.

16. Gapning maksimal qolipi qanday lisoniy omillar asosida shakllanadi?

A. Morfologik valentlik va [Pm] ning kengayishi asosida.
B. Gapning minimal qurilish qolipi hamda [W] ning kengayishi asosida.
C. Ega, hol, so‘z – gaplarning voqelanishi asosida.
D. Ma’noviy, shakliy va joylashuv omillari asosida.

17. Ega kesimlik kategoriyasi tarkibidagi qaysi grammatik shakl valentligining aktanti hisoblanadi?

A. Tasdiq – inkor grammatik shakli.
B. Zamon ko‘rsatkichlari.
C. Mayl grammatik shakli.
D. Shaxs – son ko‘rsatkichlari.

18. Undalma gap o‘rtasida voqelashganda qanday ajratiladi?

A. Undalmadan so‘ng vergul qo‘yib ajratiladi.
B. Ikki tomondan tire qo‘yiladi.
C. Bir tomondan tire, ikkinchi tomondan vergul qo‘yiladi.
D. Ikki tomondan vergul qo‘yib ajratiladi.

19. Qaysi qatorda o‘zlashtirma gap berilgan?

A. — Har yerda jabrning tig‘ini sindirmoq zarur, — dedi Navoiy qat’iyat bilan (O.).
B. —Gumoningizni ayting bo‘lmasa!— dedi ellikboshi tajang bo‘lib, — kim olganini men bilmasam, avliyo bo‘lmasam! (A.Qahhor)
C. Sakson ota har soatni g‘animat bilish kerakligini aytdi.
D. Jahl chiqsa, aql qochadi deyishadi.

20. Men otga mindimu, chorvador do‘stlarim oldiga jo‘nadim, u yoqdan qimiz va yangi so‘yilgan go‘sht olib keldim (CH.Aytmatov). Gapning tuzilishiga ko‘ra turi va egani aniqlang.

A. Qo‘shma gap; ega – «men ».
B. Murakkab qo‘shma gap; ega – «men».
C. Kesimlari uyushgan gap; ega – «mindim».
D. Murakkablashgan sodda gap; ega – «men», «kimiz», «gusht».

**Hozirgi o’zbek adabiy tili fanidan yakuniy nazorat uchun savollar**

Sintaksis nima.
Sintaksisning morfologiya, leksikologiya va fonetika bo‘limlari bilan bog‘liqligi.
Sintaksisning tarkibiy qismlari.
Sintaksis grammatikaning so‘zlar va gaplarning o‘zaro aloqasi nima?
Sintaksisning predmeti va obekti
Zidlov munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar
Qo’shma gap va uning turlari
Gapning mas’no turlari
Qo‘shma gaplar nutqdagi xususiyatlari
Ayiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar
Ergash gaplar umuman necha turga bo`lib o`rganiladi
Havola bo‘laklarli qo’shma gap turlari
so‘z birikmalari nazariy qarash
Sintaksis va morfologiya aloqasi
Qo’shma gapning tilshunoslikda o’rganilish
Gap va nutqning yirik parchasi bo‘lgan matnni o‘rganuvchi bir qismi.
Ayiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar
Sintaktik munosabat va uning turlarini o‘rganish
Bosh gapga ta’rif bering
Ergash gaplar tasnifi
Biriktiruv yordamchi yordamida bog’langan qo’shma gap
Sintaktik birliklarda tinish belgilarining roli
Ikkinchi darajali bo’laklar
Sintaktik aloqa va uning turlari
Sintaksis grammatika nima?
Havola bo‘laklarli qo’shma gap turlari
Sintaksisning predmeti
Tobelanish turlari
Gap bo‘laklari. Gap bo‘laklarining leksik-grammatik xususiyatlari
Ergash gapli qo‘shma gaplar va ularning turlari haqida ma’lumot bering
To‘ldiruvchi va uning funksiyasi
Qo‘shma gaplarning yordamchi vositalarsiz birikishi
Inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar
Ergash gapli qo`shma gaplarning asosiy belgilariga nimalar kiradi
Aniqlovchiga izoh bering?
Tahlil usullari

Qolip nima?
Gap bo‘laklari.
Ergashgan  qo’shma gap turlari
Biriktiruv yordamchi yordamida bog’langan qo’shma gap nima?
Qolip va model tushunchasi
Qo‘shma gaplar quyidagi xususiyatlar
Gap bo‘laklari.
Aralash murakkab qo‘shma gaplar.
Qoliplar haqida ma’lumot bering?
Ko’chirma gap haqida ma’lumot
Qo’shma gap turlari
Sintaktik tahlil usuli
O’zlashtirma gap  turlari
Ergash gaplar  tasniflang?
Zidlov munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar
Predikativ modeli nima?
Ergash gapli qo`shma gaplarda fe’l mayllarining o’rni
Qo’shma gaplarda  zamon tushunchasi
Gap va  uning strukturasi
Zamon va maylning predikativlikdagi xususiyati
Fe’lning shaxsli shakllari orqali birikishi haqida ma’lumot
O'zbek tilshunosligida ergash gaplar haqoida tushuncha
Predikatsiya hodisasi
Ega ergash gapli qo’shma gap
Gap bo’laklari
Qo‘shma gap qismlarini o‘zaro bog‘lovchi vositalar
Qoliplar haqida ma’lumot

Murakkab qo‘shma gap
Gap va turlari
Model tushunchasi

Uyushiq kesimlarning o‘ziga xos xususiyatlari
Kiritmalar haqida  ma’lumot
Tahlil usullari.Sintaktik tahlil
Ajratilgan bo‘laklar haqida ma’lumot
Biriktiruv yordamchi yordamida bog’langan qo’shma gap nima
Qo’shma gap turlari
Hol va uning turlari
Qo’shma gap turlari
Tahlil turlari
Gap bo‘laklari haqida mas’lumot
Inkor munosabatli bog‘langan qo‘shma gaplar
Tahlil turlari
Ergash gap turlari
Gap bo‘laklarining leksik-grammatik xususiyatlari

Aniqlovchiga izoh bering?
Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalarga nimalar kiradi
.Sodda va qo‘shma gaplarda
Sintaktik tahlil
Gapga umumiy ma’lumot bering?
Qo’shma gaplarda tinish belgilar ahamiyatiu
3Ikkinchi darajali bo’laklar funksiyasi
Sintaksis va gap
Sintaksis qoliplar
.Grammatika va uning nazariy tarixidagi sintaksis
Hol haqida ma’lumot
Ergash gaplarning tasnif etish asoslari
To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar